

## ÖZBEKISTONDA TURIZM, SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA

Shavkatov Javohir

Student, Department of Tourism,  
Kimyo International University in Tashkent  
Javokhir4434@gmail.com +998994004434

Nurmatova S. Sh.

Supeviser: Kimyo International University in Tashkent  
Senior lecture of Tourism Department  
Sitara-nurmatova@mail.ru +998977510731

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turizm sohasining hozirgi kunda yurtimiz miqyosida qay darajada rivojlanishga erishayotgani haqida fikr yuritilgan. Bu jarayon aynan qadimiy va navqiron hamda turizm o'chog'iga aylanib ulgurgan Samarqand shahri misolida yoritib berilgan. Shu jumladan, „Buyuk ipak yo'li” tarmog'i to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, Buyuk ipak yo'li, Sharq taronalari, ekoturistik, Xitoy, Sian, festival, ko'hna obidalar

### Kirish

Yurtimizda sayohatbop go'zal go'shalar, miriqib hordiq chiqarishga, dam olishga arziydigan so'lim hududlar ko'p. Sharafli o'tmishimizdan so'ylovchi, saodatli bugunimizni ifodalovchi tarixiy va zamonaviy obidalar ko'hna shaharlarimiz qiyofasini belgilab beruvchi noyob inshootlardan sanaladi. Bu borada azaldan nomi yetti iqlimga taralgan qadimiy Samarqandning o'rni alohida. Ko'hna va hamisha navqiron mazkur shahar haqida so'z ochilganda eng avvalo, ulug' sarkarda Amir Temur bobomiz tavalludining 660-yilligi yubileyi munosabati bilan bu qadim manzilda sohibqiron haykali ochilish

marosimi yodga keladi. Ushbu marosimda shahar bayrog'iga birinchi raqamli Amir Temur ordeni qadab qo'yilgan, haykal ochilgan sana, 18- oktyabr bundan buyon Samarqand kuni sifatida nishonlanishi taklif qilingandi.

Darvoqe, bir paytlar Samarqandda shaharsozlikning ajoyib namunasini yuzaga keltirgan, ko'plab bog'-u rog'lar, masjidlar, madrasalar, noyob inshootlar, go'zal



favvoralar barpo ettirgan sohibqiron Amir Temur mamlakatimiz mustaqilligi sharofati, tufayli o'z yurtining ardoqli farzandiga aylandi.

Sobiq ittifoq paytidagi e'tiborsizlik oqibatida deyarli xarobaga aylanib qolgan asrlar bilan so'ylashgan tarixiy yodgorliklarni qaytadan tiklashga, ta'mirlashga, ularni o'z holatiga qaytarishga e'tibor qaratildi. Vazirlar Mahkamasining "Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida amalda bajarilgan ishlar dunyo donishlari tomonidan "Insoniyat tafakkurining shoh asari" deya e'tirof etilgan mazkur ziyoratgohning so'nmas shuhratini qayta tikladi.

Yana qanchadan-qancha ko'hna obidalarda ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari olib borildi. Natijada mustabid tuzum davrida qarovsizlikdan ko'rimsiz holatga kelib qolgan ne-ne osori-atiqalar, ziyoratgohlar asl holiga qaytdi.

Amir Temur maqbarasidan to Mirzo Ulug'bek rasadxonasigacha bo'lgan masofadagi barcha tarixiy inshootlar – Ruhobod maqbarasi, Ulug'bek, Tillakori, Sherdor madrasalari, Saroymulxonim, Hazrati Xizr masjidleri, Shohi Zinda va Motirudiy yodgorlik majmualari uyg'unligi ta'minlandi. Aynan shu yo'nalish bo'yicha turizm xizmati yo'lga qo'yildi.

Endi qadimiy Kentning ko'hna obidaları qarshisida har qanday sayyoh ham xayolga cho'madigan, hayratlanadigan bo'ldi. Mustaqillik yillarida Samarqandda turizm o'zining yangi bosqichiga ega bo'lganini, rivojlanganini alohida ta'kidlash joiz. Ayni paytda viloyatda turizm bilan bog'liq oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda saboq olayotgan talabalar mehmonxonalar, turistik firmalar va ekoturistik yo'nalishlar uchun bilimdon kadrlar bo'lib yetishmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Ko'hna shahar ziyoratiga tez-tez borib turishni xush ko'raman. Registon, Shohizinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi kabi o'nlab tarixiy inshootlarda bo'lganimla, al-Buxoriy, al-Motirudiy yodgorlik majmualarini ziyorat qilganimda qalbim go'zal va samimiy tuyg'ular bilan to'lib toshadi, yurtimga bo'lgan mehrim oshgandan oshadi. Ajdodlarimizning ko'hna tarix shodasidan qanday o'rin egallaganini, yetti iqlimga dong taratgan ko'hna Turkiston shuhratini, mustaqillik davrida tobora rivojlanib borayotgan Yanggi O'zbekiston taraqqiyotini bugungi amriqolig-u yevropalik, afrikalig-u osiyolik, yashil qit'a hisoblanmish avstraliklar ham yaxshi bilishadi. Ularning bu go'zal va qadimiy yurt bilan hamkorliklari yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimiz mustaqilligining 31 yilligi arafasida ko'hna Samarqand bilan yondosh bo'lgan.



### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada ilmiy yo‘nalishni to‘laqonli ochib berish uchun kuzatish, o‘rganish usullaridan foydalanilgan va mavzu yuzasidan ko‘proq fikr yuritish, kuzatishlar asosida yig‘ilgan materiallar orqali xulosalar berishga harakat qilingan.

### Tahlil va natijalar

Yaqinda shahar yaqinida barpo etilgan “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazida bo‘ldim. Bu yerdagi go‘zallikdan, obodonchilikdan, saranjomlig-u sarishtalikdan hayratga tushmaslikning, me‘moriy jihatdan takrorlanmas ruhdagi inshootlarni e‘tiborsiz tomosha qilishning imkoni yo‘q edi. Sayohatim tafsilotlariga biroz to‘xtalay. Aslida Samarqandning ulug‘ligi, mashhurligi nimada? Nega bu zaminga dunyo ahli bir umr intilib yashagan? Bu savollarga javoblar aniq. Endi ularga qo‘shimcha bo‘layotgan savollarga ham javoblar tayyor. Asrlardan buyon dunyo ahlini lol qoldirib kelayotgan Samarqanddagi o‘zgarishlar – bunyodkorligu obodonlashtirishlar, xususan, barpo etilayotgan yangi-yangi zamonaviy inshootlar, turar-joy binolari, mukammal ta‘mirlanayotgan osori-atiqalar, odamlar kayfiyatidagi o‘zgarishlar, xorijlik sayyohlar oqimining kun sayin oshib borayotganining o‘ziyoq shunday savollarga oydinlik kirityapti.

Markaz hududidagi inshootlarda Samarqandning o‘tmishiga oid manzaralar aks ettirilgani diqqatga sazavor. Masalan, “Boqiy shahar” majmuasi bezaklarida qadimiy Afrosiyob devorlarida saqlanib qolgan So‘g‘d davlati hukmdorining Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalanilgan. “Boqiy shahar” majmuasi devorlarining tarixiy tasvirlar bilan bezatilishi, ularning majmuaga xoldek yarashib tushganligi ham bu nomning bejizga tanlanmaganini ko‘rsatadi. Xitoyning qadimiy Sian shahridan boshlanib, dunyoning ko‘plab mamlakatlari hududidan o‘tgan, ko‘hna Rimga qadar yetib borgan bu ulkan savdo yo‘li jahon xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy, ma‘rifiy muloqat vositasi bo‘lib kelgan. Qadimiy Samarqand esa Buyuk ipak yo‘lining asosiy manzillaridan biri bo‘lgan.

Majmuada qadimiy bozor, 40 ta hunarmandchilik ustaxonasi tashkil etilgan. Ularda ustalar yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, gilam to‘qish kabi jarayonlarni sayyohlarga namoyish etishadi. Bu Samarqandda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish borasida bajarilgan ulkan ishlarning bir qismidir. Mutaxassislar fikricha, turizm markazi keyingi yillarda Samarqandga keladigan xorijiy sayyohlar



sonini 1,5 milliondan oshirishda muhim o‘rin tutadi. Keyinchalik esa bu raqamning 9 millionga yetkazilishi maqsad qilinibdi.

-Men bu yerdagi zamonaviy mehmonxonalar, Kongress xol, va boshqa inshootlarning qurilishi, bezatilishini yuqori baholagan bo‘lardim, - dedi markazni o‘ta qiziqish bilan kuzatayotgan xorijlik sayyohlardan biri. – Ularda hamma sharoitlar muhayyo etilgan. Fikrimcha, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazi birgina Samarqandga emas, butun O‘zbekistonga xizmat qiladi. Qolaversa, u sayyoramizdagi barcha davlatlar uchun foydali bo‘ladi, deb o‘ylayman.

**Xulosa va takliflar**

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro turizm markazi ochilish marosimidagi so‘zlarini esladim,

-Qadimiy uslubda barpo etilgan 14 ta hududimizga xos 40 ta hunarmandlik ustaxonasining har biri betakror qiyofaga ega, - degandi

Yurtboshimiz hunarmandlar mehnatini yuqori baholab. –Qo‘li gul ustalar yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, ipak qog‘ozi ishlab chiqarish, zargarlik, gilam to‘qish jarayonlari orqali sayyohlarning ko‘z o‘ngida mahorat darslarini olib boradilar. Xususan, Rishton kulolchiligi, Buxoro zardo‘zligi, Qoraqalpoq o‘tovi, Marg‘ilon atlas kabi hunarmandchilik mahsulotlari sayyohlar uchun amaliy san‘at durdonalari sifatida taqdim etiladi. Bu yerga qadam qo‘ygan inson nafaqat Samarqand bag‘rida butun O‘zbekiston zaminida yurgandek bo‘ladi, uning bor ulug‘vorligini va beqiyos jozibasini his etadi. “Buyuk ipak yo‘li” markazini tomosha qilgan kishi shunday xulosaga keladi. Negaki, markazda barpo etilgan inshootlarning har bir g‘ishtida, har bir ustuniy-u, yog‘ochlarida sharqona go‘zallik ufuradi, odamlarni bag‘riga chorlaydi, jo‘shqin mehnatga, ijodkorlikka undaydi.

Xalqaro markaz bilan tanishuvdan so‘ng sayohatimizni butun Samarqand bo‘ylab davom ettirdik. Turli kasb egalari, sayyohlar bilan uchrashdik. Ular orasida samarqandlik faxriy jurnalistlardan birining xotiralari e‘tiborimni tortdi. U turizm haqida, har ikki yilda bir marta o‘tadigan “Sharq taronalari” xalqaro qo‘shiq festivali, uning Samarqand turizmiga ta‘siri haqida gapirib berdi. –“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali doirasida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tadbirlarning hammasi biri biridan muhim, - dedi u. -Tashkilotchilarga aslo tinim bo‘lmaydi. - Dunyoning 50 dan ortiq davlatidan kelgan delegatsiyalar rahbarlari, mutaxassislar, ijrochilar, jurnalistlar va boshqa mehmonlarning bunday tadbirlarda ishtirokini ta‘minlash, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish, ayniqsa, ilmiy yoki matbuot anjumanlarini tashkil etishning o‘zi bo‘lmasdi. Bundan ko‘rimin turibdiki,



Samarqandda yanada turizm sohasiga e`tiborni kuchaytirishimiz lozim. Nafaqat Samarqandda balki yurtimizning boshqa shaharlarida ham sohaga rivojiga katta kuch sarf etishimiz lozim.

Bular haqida aytadigan bo`lsak, shaharlar hududida kuchli gid tizimi yaratish, borlarini yanada kuchaytirish. Chunki bu sohada begona til vakillari bilan muloqatga kirishish uchun birinchi o`rinda tarjimonlarimizning safiyasini oshirishimiz zarur. Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda ta`limga ham e`tibor kuchayadi. Faqatgina til bo`yicha emas, balki turizm ta`limini ham rivojlantirishimiz zarur.

Qo`shimcha holatda sayyohatchilar uchun qulay bo`lgan transport vositalarini ham olib kelishimiz kerak. Negaki, biz qanchalik darajada „komfort”ni ya`ni, qulaylikni yaratsak, davlat hududiga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni shuncha ko`payadi. Bu esa davlat budjeti uchun katta foyda olib keladi.

Bunday takliflar sirasini yanada kengaytirishimiz mumkin. Xususan, bizda haligacha eski holatidan biroz bo`lsada, xalq tilida aytganda „epaqaga keltirilmagan” rekonstruktsiya qilinmagan bino va hududlar talaygina. Ular ham tarixiy boyliklar bo`lganligi, shu bilan bir qatorda turistlar uchun qiziqarli bo`lishi shubhasiz, albatta. Shu tufayli ham biz vaqtni qo`ldan boy bermagan holda, tezroq shunday holatlar yuzasidan ishlarni olib borishimiz zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, bugun biz siz bilan hozirgi kunda anchayin rivojlanib boryotgan turizm sohasida fikr yuritdik va uni Samarqand shahri misolida o`rganib chiqdik. Endi bizda shunday fikrlar mavjud. Demak, biz bu sohada anchamuncha yutuq va kamchiliklarga ega ekanmiz. Shular asnosida, endilikda soha rivojiga yanada ko`proq e`tibor qaratishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- I.Tuxliyev, B.Safarov. Turizm asoslari -T.: „Yangi nashr" 2012
- Aliyeva M. T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2005.
- Mirzayev M. A. Turizm asoslari. Ma`ruzalar matni. – T., 2005
- Pardayev M. Q. Turizm asoslari. Ma`ruzalar matni. – Samarqand. 2006
- Tuxliyev I. S. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-molia, 2010.
- Nazarova G. G. va boshqalar. Turizm huquqi. – T.: Talqin, 2003.
- Elektron saytlar: [Univ-silkroad.uz](http://Univ-silkroad.uz) [Uzbektourism.uz](http://Uzbektourism.uz)
- [Actualidadviajes.com](http://Actualidadviajes.com)

